

V SHO'BA

ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMI ORQALI DUALISTIK TIZIM MODELINI SHAKLLANTIRISH

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDIT QARZLARINI BOSHQARISH TIZIMINI DUALISTIK MOLIYA MODEL VA ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Xodjayev Husniddin Mukammilovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur tadqiqot O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kredit qarzlarini (NPL) boshqarish tizimini takomillashtirishning institutsional, prudensial va bozor-mexanizmlarini dualistik moliya modeli an'anaviy bank amaliyoti va islomiy moliya tamoyillari asosidagi risk-taqsimlovchi instrumentlar hamda alternativ moliya ekotizimi integratsiyasi orqali asoslaydi.

Makroiqtisodiy fon 2025-yilda ijobiy, Milliy statistika qo'mitasi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, YAIM real o'sishi 7,7% ni tashkil etgan. Inflyatsiya 2025-yil dekabrda yillik 7,3% qayd etilgan³⁰⁰. Shunga qaramay, bank risklarining strukturaviy drayverlari saqlanmoqda, korporativ kreditlarda xorijiy valyuta ulushining yuqoriligi, qarzdorlarning biznes barqarorligini baholash amaliyotidagi farqlar, restrukturizatsiyalangan kreditlar ulushi va IFRS 9 talablari bilan prudensial tasnif o'rtasidagi konseptual tafovutlar.

Tadqiqot natijasida O'zbekiston bank bozori va siyosiy-iqtisodiy sharoitlariga mos, bajarilishi mumkin bo'lgan quyidagi markaziy paket ilgari suriladi:

- NPLni boshqarishning to'liq sikl arxitekturasini joriy etish, erta ogohlantirish va segmentatsiya; restrukturizatsiyani to'lov muddatini cho'zishdan hayotiylikni tiklash modeliga o'tkazish; suddan tashqari restrukturizatsiyani kreditorlar koordinatsiyasi bilan institutsionallashtirish; muammoli aktivlarni sotish bozorini raqamli platforma va standart shartnomalar bilan yo'lga qo'yish.

- Dualistik moliya modelini NPLni restrukturizatsiya qilishda riskni taqsimlovchi instrumentlar orqali qo'llash, aktivga tayangan qayta tuzish, qarzni kapitalga aylantirish, foyda/zarar taqsimoti elementlari - bu yo'nalish Markaziy bankning islomiy moliya standartlari va nazorat amaliyotini o'rganish/integratsiya qilish tashabbuslari bilan uyg'unlashtiriladi.

- Alternativ moliya ekotizimi orqali NPL profilaktikasi va rehabilitatsiya, kredit axboroti almashinuvi, garov registri integratsiyalari, faktoring platformalari, nobank kredit institutlarining risk signallari va portfel ko'chirish mexanizmlari.

Bank tizimida muammoli kreditlar ulushining 2025–2026-yillarda pasaygani rasmiy statistik ma'lumotlarda yaqqol ko'rinadi, 2025-yil 1-fevral holatida NPL 4,5% yoki 23 768 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-fevralga kelib ushbu ko'rsatkich 3,2% yoki 19 361 mlrd so'mgacha kamaygan. Ayni davrda jami kredit portfeli 533 989 mlrd so'mdan 610 381 mlrd so'mgacha oshib, 14% dan ortiq o'sishni ko'rsatgan. Mazkur

³⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yakunlari bo'yicha dastlabki ma'lumotlari

tendensiya kredit sifati nisbatan yaxshilanayotganini bildiradi, biroq uni ehtiyotkorlik bilan baholash lozim. Chunki korporativ kreditlarda xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi 63% darajasida saqlanib qolmoqda, prudensial NPL ta'rifini bilan IFRS 9 3-bosqich mezonlari o'rtasida tafovut mavjud, shuningdek restrukturizatsiya va forbearance amaliyotlari kredit sifati yomonlashuvini statistikada kechikib aks ettirishi mumkin³⁰¹.

Rentabellik nuqtayi nazaridan, Markaziy bank yillik hisobotida bank sektori ROA/ROE ko'rsatkichlarining 2024-yilda mos ravishda 1,4% va 6,6% bo'lgani, shuningdek kredit yo'qotishlari bo'yicha ajratmalar 25 939,3 mlrd so'mni tashkil etgani ko'rsatiladi. 2025-yil 1-oktabr holatiga tuzilgan sektor rentabellik jadvalida ROA 2,1% va ROE 11,8% darajasida qayd etilgan, bu esa 2024-yilga nisbatan operatsion va risk xarajatlari muvozanatining yaxshilanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2023-yil yakunida NPL qoplash koeffitsiyentining 37% gacha pasayishi NPL past ko'ringan sharoitda ham yo'qotishlarni qoplash imkoniyati zaiflashishi mumkinligini bildiradi.

Regulyator tomonidan 2025–2028-yillarga mo'ljallab ishlab chiqilgan yo'l xaritasi mazkur institutsional muammolarni tizimli ravishda bartaraf etishga qaratilgan. Unda muammoli kreditlar ta'rifini kengaytirish, IFRS 9 doirasidagi 3-bosqich mezonlarini to'liq qamrab olish, qayta tuzilgan va yengillik berilgan aktivlarni qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklari hamda unga berilgan imtiyozlar asosida aniq mezonlar bilan belgilash, sog'lomlashuv davri bo'yicha qat'iy talablarni joriy etish, banklarda erta ogohlantirish tizimi hamda tezkor tuzatish choralari qo'llash mexanizmini amaliyotga tatbiq etish, shuningdek suddan tashqari restrukturizatsiya mexanizmlari va muammoli aktivlar bozorini rivojlantirish nazarda tutilgan. Jahon banki materiallarida ham aktivlar sifati ko'rsatkichlari IFRS 9 talablari va prudensial yondashuvlar kesimida qiyosiy tahlil qilinib, ushbu ta'riflardagi farqlar nazorat samaradorligi hamda bozordagi shaffoflik nuqtayi nazaridan muhim metodologik xatarni yuzaga keltirishi ta'kidlanadi.

Alternativ moliya ekotizimining NPL boshqaruvidagi roli O'zbekistonda ma'lumotlar infratuzilmasining kengayishi orqali amaliy mazmun kasb etmoqda. Markaziy bank yillik hisobotida kredit ma'lumotlari almashinuvi tizimi kredit riskini oldini olish uchun zarur to'liq qamrovli axborotni ta'minlash vositasi sifatida baholanadi, 2024-yilda davlat kredit registriga nobank kredit institutlari, faktoring va bank kafolatlari bo'yicha ma'lumotlar integratsiya qilingan. Garov registrida QR-kodli ko'chirmalar, SMS xabarnoma, my.gov.uz orqali qidiruv, faktoring platformalari uchun web-service kabi funkcionallar joriy etilishi kredit riskini kamaytirish, garov shaffofligini oshirish va undirish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Nobank segmentining o'zi ham risk signal manbaidir: mikromoliya tashkilotlarida 2026-yil 1-fevral holatida NPL ulushi 3,6% bo'lib, portfel 11 367,5 mlrd so'mni tashkil etgan.

Dualistik moliya modeli bo'yicha asosiy xulosa shundan iboratki, NPL boshqaruvida faqat undirish paradigmasi yetarli emas, qarzdorning biznes modelini tiklash, aktivga tayangan qayta moliyalashtirish va riskni adolatli taqsimlash mexanizmlari muammoli aktivlarning qaytadan ishlaydigan aktivga aylanish ehtimolini oshiradi³⁰². O'zbekistonda islomiy moliya yo'nalishida institutsional tayyorgarlik elementlari mavjud. Markaziy bank islomiy moliyaviy xizmatlar bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi tuzilma a'zoliciga kirgani, hamda islomiy moliyani rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribani joriy etish imkoniyatlari qayd etilgan.

³⁰¹ World Bank, Republic of Uzbekistan Financial Sector Assessment, 2025.

³⁰² IFC, DARP—Creating Distressed Assets Markets: Lessons Learned Since the Global Financial Crisis and Opportunities for Investors in Emerging Markets Today

Iqtisodiyot va moliya vazirligi darajasida ham Islom taraqqiyot banki bilan islomiy moliya va shariatga asoslangan moliyalashtirishni kengaytirish, qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va kadrlar tayyorlash zarurati muhokama qilingan. Bu faktlar dualistik modelni normativ ruxsat va institutsional salohiyat nuqtayi nazaridan bosqichma-bosqich kiritish mumkinligini anglatadi.

Quyidagi jadval amaldagi NPL boshqaruvi amaliyotlari va takomillashtirish paketini dualistik moliya hamda alternativ ekotizim kesimida kompleks taqqoslaydi.

1-jadval

Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari

Boshqaruv yo'nalishi	Amaldagi holat va asosiy muammo	Takomillashtirish choralari	Kutilayotgan natija
Portfel profilaktikasi va erta ogohlantirish	Kredit monitoringi mavjud, biroq EWS asosan kechikish holatiga bog'langan. Restrukturizatsiya ko'pincha faqat muddat uzaytirish shaklida qo'llanadi. NPL ulushi 2025-yil 1-fevraldagi 4,5 foizdan 2026-yil 1-fevralda 3,2 foizgacha pasaygan.	Qarzdorning to'lov qobiliyatini oldindan baholash, cash-flow asosidagi monitoringni kuchaytirish, kredit registri va garov registri ma'lumotlaridan real vaqt rejimida foydalanish.	Yangi NPLlar oqimi kamayadi, kredit sifati erta bosqichda nazorat qilinadi, 2-bosqichdan 2-bosqichga o'tish sekinlashadi.
Restrukturizatsiya	Qayta ko'rib chiqilgan aktivlar bo'yicha reglament mavjud, biroq ayrim hollarda tasnifni o'zgartirmaslik yo'qotishlarni kechiktirish xavfini tug'diradi. Qoplash koeffitsiyentining oxirgi rasmiy darajasi 37 foizni tashkil etgan.	Restrukturizatsiyani oddiy muddat uzaytirishdan chiqarib, qarzdorning "viability" bahosi asosida amalga oshirish; turnaround plan, quasi-equity, aktivga tayangan qayta moliyalashtirish elementlarini joriy etish.	Qayta tuzilgan kreditlarning sog'lomlashish darajasi oshadi, NPL ulushini qo'shimcha pasaytirish imkoniyati paydo bo'ladi.
Suddan tashqari restrukturizatsiya va kreditorlar koordinatsiyasi	Ko'p kreditorli qarzdorlar bo'yicha hamkorlik tizimli emas, amaliyot asosan ikki tomonlama shaklda qolmoqda.	Kreditorlar o'rtasida standart kelishuv mexanizmlarini joriy etish, raqamli restrukturizatsiya platformasini yaratish, viability monitoringini yagona formatga o'tkazish.	Yirik korporativ NPLlarni hal etish jarayoni tezlashadi, undirish va qayta tiklash xarajatlari kamayadi.
Garov va ta'minotni realizatsiya qilish	Garov bo'yicha huquqiy asoslar mavjud, biroq realizatsiya muddati, bozor likvidligi va baholash sifati muammo bo'lib qolmoqda.	Garovni majburiy sotishdan oldin aktivga tayangan qayta tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqish; garov registri va boshqa platformalarni o'zaro integratsiya qilish.	Garov realizatsiyasi tezlashadi, collateral recovery darajasi oshadi.
NPLni balansdan chiqarish va ikkilamchi bozor	Muammoli kreditlarni sotish amaliyoti cheklangan, ikkilamchi bozorda narx shakllanishi sust.	Muammoli aktivlar bozori uchun platforma, standart ma'lumot paketi va investorlar uchun andarrayting	Bank balanslari tezroq tozalanadi, muammoli aktivlarning bir qismi bozorga

		yondashuvlarini joriy etish; alternativ investorlarni jalb qilish.	chiqariladi, rentabellik ko'rsatkichlari yaxshilanadi.
--	--	--	--

Jadvaldagi rasmiy bazaviy ko'rsatkichlar Markaziy bankning NPL statistikasi, moliyaviy barqarorlik/yillik hisobotlari hamda regulyativ hujjatlariga tayanadi; "kutlayotgan effekt" ustuni esa regulyator yo'l xaritasida belgilangan islohotlar mantiqi asosida ssenariy sifatida baholangan.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, O'zbekistonda NPL ulushi 2025–2026 davrida pasaygan bo'lsa-da, NPL boshqaruvining sifat ko'rsatkichlari tizimli mustahkamlashni talab etadi. NPL qoplash koeffitsiyentining 2023-yil yakunida 37% gacha pasaygani bank tizimining yo'qotishlarni qoplash imkoniyati zaiflashganini ko'rsatadi. Bu holat NPL pasayishi bilan bir vaqtda ham ehtiyotkor prudensial siyosat zarurligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. Qonunning yangi tahriri, 2023-yil 17-iyul.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom"i, 2696-son, 2015-yil 14-iyul.

Akramova, N. (2025). Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili. Green Economy and Development.

Karshiyev, A. (2025). Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlikka ta'siri. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot.

Cerruti, C., Cruikshank, E. D., Julià, J. M., Martínez, A. F., & Sánchez Saché, M. (2019). DARP—Creating Distressed Assets Markets: Lessons Learned Since the Global Financial Crisis and Opportunities for Investors in Emerging Markets Today. IFC / PPIAF.

Plikas, J. H., Kenourgios, D., & Savvakis, G. A. (2024). COVID-19 and Non-Performing Loans in Europe. Journal of Risk and Financial Management, 17(7), 271.

MALAYZIYADA ISLOM MOLIYASI EKOTIZIMI EVOLYUTSIYASI

*DSc, prof. Astanakulov Olim Tashtemirovich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Berdaliyeva Muxabbatxon Zayniddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

Malayziya islom moliya ekotizimi yagona integratsiyalashgan model hisoblanadi. Ushbu tizim Bank Negara Malaysia hamda Shariah Advisory Council orqali normativ va shariat nazorati bilan qo'llab-quvvatlanadi. Islom pul bozori va rivojlangan sukuk infratuzilmasi likvidlikni ta'minlab, bozor barqarorligini kuchaytiradi. Natijada, Malayziya global sukuk bozorida yetakchi o'rinni egallagan va islom moliyasini institutsional darajada muvaffaqiyatli shakllantirgan davlat sifatida e'tirof etiladi. Malayziyada islom moliyasi amaliyotining dastlabki institutsional ko'rinishi Pilgrims Savings Corporation tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, u 1962-yil avgust oyida ro'yxatdan o'tgan. Mazkur tuzilma keyinchalik haj safariga tayyorgarlik ko'ruvchi